

ROLE OF PHONETIC RHYTHM IN CORRECTION OF SPEECH DEFECTS

O. S. Ishmatova

Chirchik State Pedagogical University

Teacher of the "Special Pedagogy" Department of the Faculty of Pedagogy

ANNOTATION

This article discusses the role of phonetic rhythm in the correction of speech disorders.

Keywords: Phonetic rhythmics, speech therapy, surdopedagogy, tiflopedagogy, oligophrenopedagogy, Movement-children and adults with defects in the base organs, stroke, infarction, speech disorders, rehabilitation, methodology, correction, postanovka, automation, tactile-kinesthetic sensation, attention, auditory perception, motorics, music, rhythm, movement, mutq, means of communication, imitation, verbal, noverbal, communication.

Nutq funktsiyasining to'liq shakllanishi bolaning butun aqliy rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, nutq davomida diqqat, xotira va fikrlash jarayonlarining shakllanishi va takomillashishi ham amalga oshiriladi. Tushunarli nutq to'liq muloqotning ajralmas shartidir, shuning uchun u bolaning atrofidagi borliq haqidagi g'oyalalarini kengaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, nutqning o'zi tartibga solish funktsiyasini bajaradi, bu og'zaki ko'rsatmalar yordamida bolaning xatti-harakati nazorat qilinishi, uning turli xil jamoaviy faoliyat shakllarida etarli darajada ishtirok etishi rejalashtirilishi va amalga oshirilishidan tashkil topadi.

Ko'plab taniqli pedagog va psixologlardan, ayniqsa, L. S. Vygotskiy, J. Piaget, A. V. Zaporozets kabi va boshqalar asarlarida ko'rsatilishicha, ilk yoshdagи bolalarda aqliy funktsiyalarning eng intensiv rivojlanish bosqichlari va shu bilan birga turli xil salbiy ta'sirlarga eng sezgir bo'lgan davrlarni hisoblanadi.¹

Go'daklik - bu bolaning tug'ilgandan uch yoshgacha bo'lgan davri. Bu davrda motorika, kognitiv faollik, nutqiy funktsiyalar rivojlanadi, shuningdek, chaqaloqning shaxsiy fazilatlari shakllanadi. Shuning uchun, hatto eng ahamiyatsiz, nomuqobil ta'sirlar ham nutq funktsiyasining to'liq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, hayotining ilk davrida bolaning miyasi egiluvchan bo'lib, har qanday korreksiyalovchi, tibbiy-pedagogik ta'sirlarga tez beriluvchan bo'ladi.

Hozirda ota-onalar tomonidan uch yoshga to'lgan bola nutqining kechikishi haqida shikoyatlar bilan mutaxassislarga murojaat qilish soni ortib bormoqda. Ko'pgina bolalar nutqni aloqa vositasi sifatida ishlatmaydilar.

Ota-onalar bu vaziyatdan xavotirda. Aksariyat ota-onalar bu borada mutaxassis yordamga muhtojligini yaxshi anglaydilar. Bunda korreksion ishni iloji boricha tezroq boshlash tavsiya etiladi. Agar logopedik yondashuv ertaroq boshlanmasa ikkilamchi patologiyalar paydo bo'lishi xavfi ko'payadi. Uch yoshgacha bo'lgan bolalar bilan ishlashda an'anaviy logopediya yondashuv har doim ham kutilgan samarani bermaydi.

¹ Наталья Трифонова Современные технологии в работе логопеда с детьми с ОВЗ.

Logopediyada korreksion ta'sirni imkon qadar erta boshlash tavsiya etilar ekan, biz tomondan uch yoshgacha bo'lgan nutqida nuqsoni bor bolalar bilan ishlashda samarali qo'llanilayotgan metodikani e'tiboringizga havola etmamiz.

Nutqida nuqsoni bo'ldan uch yoshgacha bo'lgan bola imo-ishoradan foydalangan holda munosabatga kirishadi, ayniqsa nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar. Bunday vaziyatda bolalrga qulay bo'lgan, ular uchun tanish va yaqin bo'lgan Fonetik ritmika metodikasi orqali nutqini chiqarish va tovushlarni hosil qilish yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz.

Fonetik ritmika mashqlari analizatorlararo ta'sirni kuchaytiruvchi, nutqiy tovushning vizual va motorli holatiga tayanish vositasi sifatida ishlatiladi. Fonetik ritmika usuli birinchi marta eshitish qobiliyati zaif bolalarda talaffuzni rivojlantirish uchun 1989 yilda taklif qilingan (T. Vlasova, A. Pfafenrodm).

Fonetik ritmika bu maxsus mashqlar to`plami bo`lib, unda nutq va harakat uyg`unlashtirilgan holatda nutqiy materialni (tovush, bo`gin, matn) umumiylana (qo'l, barmoqlar, oyoq, bosh va korpus) harahatlari bilan uyg`unlashtirgan holda talaffuz etish mashqlari tizimi.

A. Мухина fonetik ritmika texnologiyasi nutqning tovush tomonini shakllantirish uchun psixofiziologik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiluvchi uch darajadagi praksislarni rivojlantirishga qaratilgan metodikadir degan fikrni ilgari surdi.

Ushbu metodikada eng avvalo tovushni uyg`otish bosqichidan o'tiladi,, bunda yuz ifodasini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar bajariladi. Og'zaki talaffuz ko'nikmasi, umumiylar motorika ko'nikmalari, eshituv va ko'rur diqqati, tovushlarga taqlid qilish, shu bilan birga tovushning vizual artikulyatsiya belgilari bilan hamohanglikda qo'shimcha ko'rur va kinestetik sezgilarga ta'siri ham yordamga keladi. Tovushlarni avtomatlashtirish bosqichida esa fonetik ritmika mashqlari bolalarda artikulyatsion motorikani rivojlantiradi (nutqiy va mimik harakatlar aniqlashadi, tovushlarning talaffuzi yanada ravonlashtiradi).

Fonetik ritmika mashqlarining eng murakkab ko'rinishi bu so'z yoki so'zlar to'plamiga mos keladigan til birliklarini amaliy jihatdan ta'minlashidir. Bu usul nurqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan logopedik ish tizimida qo'llanilsa yaxshi samara beradi. Ushbu usul bolalarni o'z nutqini rivojlantirishga undaydi. Bunda bolaning nutq faolligi ortadi. Logopedik mashg'ulotlarga fonetik ritmikani kiritishda, bir tomondan, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning kommunikativ faoliyati va psixik funksiyalarining rivojlanishiga imkon yaratadi. Boshqa tomondan, logoped va bolaning taqlid orqali o'zaro munosabatga kirishishi yaqqol namoyon bo'lishi bilan avzaldir . taqlid usuli logopediyada keng ko'llaniladigan usullardan bo'lib, bunda logoped bergen namunaga bola taqlid qilishi bilan tovush holati, umumiylar mayda motorika, ovoz, nafas va hokazolarga taqlid etish tushuniladi.

Mashg'ulotlarni o'yin tarzida olib borish bolaning hissiy sohasiga foydali ta'sir ko'rsatadi, uning muloqotga kirishish imkoniyatlarini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Logopediyada fonetik ritmlardan foydalanish quyidagi muammolarni hal qilishga imkon beradi:

Logopedik mashg'ulotlar tizimiga fonetik ritmlarni kiritish, bolaning motor ko'nikmalari va ularning muvofiqlashishiga rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi;

- nutq nafasi normallashadi, nafas chiqarish davomiyligi oshadi;

- ovozning kuchi va balandligini o'zgartirish qobiliyati shakllanadi;

- mavjud tovushlarning artikulyatsiyasini aniqlashishiga, og'zaki og'zaki nutqning rivojlanishiga olib keladi;
- nutqida mavjud bo'lмаган ayrim tovushlarga taqlid usulida erishiladi;
- nutqsiz bolada g'uldirashning paydo bo'lishiga erishiladi;
- nutqdan tashqari jarayonlarning rivojlanishi sodir bo'ladi.
- diqqatning barcha turlarini (vizual, eshitish) rivojlantirish orqali yuqori aqliy faoliyatni aktivlashtiradi;
- vizual, eshitish idrokini rivojlantirish uchun xotira hajmini oshiradi;
- bolada o'z tanasining taktil-kinestetik va suyak-mushak hissini oshiradi;
- bolada harakatlarni mustaqil hamda jamoaviy bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berasdi;
- ritm hissi va eshituv-harakat uyg/unlashuvi jarayonlarini rivojlantirishga ko'maklashadi;
- bolalarda kattalar hamda tengdoshlari bilan muloqot qilish uchun ijobjiy, hissiy atmosferani yaratish, diqqat bilan tinglash va iltimoslarni bajarish, namunaviy nutqqa taqlid qilish istagini yaratishga zamin yaratadi;
- dialogik nutqning zaruriy shartlarini shakllantiradi;
- bolalarning ijodiy qirralarining ochilishiga yordam beradi.

Fonetik ritmika mashqlari orqali eshitish diqqati va xotirasi, fazoviy tasavvurlar va nutqlayotganga nigohini qaratish ko'nikmalari; mayda va umumiy motorika ko'nikmalari rivojlantiriladi, harakatlarni muvofiqlashtirish; mimik mushaklarni rivojlantirish, ixtiyoriy diqqatni rivojlantiradi operatsiyalari ham amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytish joiz-ki, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning kommunikativ faolligini rivojlantirish bo'yicha logopedik ishlar tizimida fonetik ritmdan foydalanish har bir bolaning nutqini rivojlantirish uchun turli imkoniyatlar yaratadi. Bolalar yangi artikulyatsion holatlarni o'rganadilar, nutqning prosodik komponentlar (ovozi kuchi, ovozi balandligi, nutq) rivojlanadi. Bola tovushlar va dog'larni idrok etish va takrorlashga o'rganadi. Bularning barchasi bolaning nutqini yanada shakllantirish uchun asosdir.

Fonetik ritmika nutqiy nuqsoni bor bolalarning so'z boyligini shakllantirishga qaratilgan korreksion harakatlar tizimiga qo'shimcha bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mashqlarining soddaligi va qulayligi fonetik ritmika usulini turli xil rivojlanish anomaliyalari bo'lgan hamda nutqiy buzilishlari bo'lgan shaxslarni o'qitish va tarbiyalashning har qanday reabilitatsion usulida qo'llashga imkon beradi.

Fonetik ritmika mashqlarini nafaqar logopediyada va surdopedagogikada, balki tiflopedagogirada, oligofrenopedagogika hamda ayniqlsa harakat-tayanch a`zolarida nuqsoni bor bolalar va kattalar, insult va infaret asoratlaridagi nutqiy buzilishlari bor turli yoshdagi shaxslarning reabilitatsion jarayoniga qo'shimcha metodika sifatida tavsiya etamiz.

REFERENCES

1. M.Y. Ayupova Logopediya T-2007
2. Наталья Трифонова. Современные технологии в работе логопеда с детьми с ОВЗ.
3. Ишматова, О. С. (2020). Инклузив таълимга кохлеар имплант бўлган болаларни муваффақиятли реабилитация қилиш омиллари. Science and Education, 1(Special Issue 4), 186-195.

4. Ишматова, О. С. (2021). РОЛЬ ФОНЕТИЧЕСКОЙ РИТМИКИ В РАЗВИТИИ УСТНОЙ РЕЧИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА. In СТУДЕНЧЕСКИЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 187-188).
5. Ишматова, О. С. (2021). Цели и задачи исследования развития устной речи детей с нарушениями слуха средствами фонетической ритмики. in наука, образование, инновации: актуальные вопросы и современные аспекты (pp. 241-243).
6. Ishmatova, O. S., & Abdujalil O'g'li, H. A. (2022). MAVZU: IMKONIYATI CHEKLANGANLAR FAOLIYATIDA AKT NING ROLI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 24-28.
7. Ishmatova, O. S. (2022). NUTQIY NUQSONLARNI BARTARAF ETISHDA FONETIK RITMIKANING ROLI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 378-380.
8. Ishmatova, O. S. (2022). Boshlangich talim sifatini yangilashda umumtalim maktablarda logopedik shaxobchalar faoliyatining orni. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 388-391.
9. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. Chirchiq, 1(1), 70.
10. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida muammolar bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali shakllantirishda "Quvnoq fonetik ritmika" texnologiyasining samarasi. Muғalлим, 1(2), 135-138.
11. Наталья Трифонова. Современные технологии в работе логопеда с детьми с ОВЗ.
12. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA KORREKSION ISHLARNING AHAMIYATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 475-471.
13. Dehqonova, M., & Najmiddinova, N. (2022). ALOHIDA EHTIYOJGA EGA BO'LGAN BOLALARNING OILAGA MOSLASHISHI UCHUN MUHIM OMILLAR. YANGI O'ZBEKİSTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR, 90-92.
14. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Barcha bolaga birdek sifatli ta'limni ta'minlash davr talabi. Inklyuziv ta'lif, 1(1), 243-246.
15. Кодирова, Ф. У. (2021). Методик кластер замонавий мактабда соғлом рақобат ричаги. Замонавий таълим, 2(2), 46-51.
16. Кодирова, Ф. У. (2021). Педагогический инновационный кластер в инклюзивном образовании. Academic research in educational sciences, 2(3), 521-527.
17. Usmanovna, Q. F., Olimovich, A. A., & Shuxratovna, S. Z. (2021). Early Inclusion is the Best Way to Socialize Children with Coxle Implants. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 8887-8897.
18. Кодирова, Ф. У. (2020). Значение методического кластера в практике высшего и общеобразовательного образования. Актуальные научные исследования, 1(1), 5.
19. Кодирова, Ф. У., Кобилова, Ш. Х. (2021). Таълим кластери асосида инклюзив таълимга жалб этилган ўқувчилар ҳаёт хавфсизлигини таъминлаш шарт-шароитлари. Муамма ва уларнинг ечимлари, 2(2), 85-86.

20. Усаров, Ж. Э., Эшнаев, Н. Ж., Кобилова, Ш. Х. (2021). Педагогик инновацион таълим кластер лойиҳасини амалиётда қўллаш самарадорлиги ва истиқболлари. Педагогик таълим кластери муаммо ва ечимлар, 1(2), 305-313.
21. Қодирова, Ф. У., Кобилова, Ш. Х. (2021). Повышение качества инклюзивного образования в условиях педагогического инновационного кластера. Педагогик таълим кластери, 1(1), 109-115.